O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Brokkolini sotish va uning sifatini nazorat qilish standarti

(FFV 48:2019, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #IGNVFE3FTW - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV 48:2021 “Standard for the sale of broccoli and product quality control” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatishning mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir.

STANDARTLAR INSTITUTI #IGNVFE3FTW - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi. Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. UNECE standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr>.

Brokkoliga doir ushbu amaldagi Standart ishchi guruhning yetmish beshinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2019/6 hujjatiga asoslanadi.

Standartning unifikatsiyalangan tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan (2017)

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #IGNVFE3FTW - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

BROKKOLINI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH STANDARTI

СТАНДАРТЫ ПРОДАЖИ БРОККОЛИ И КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА ПРОДУКЦИИ

STANDARD FOR THE SALE OF BROCCOLI AND PRODUCT QUALITY CONTROL

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026-y.

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart Brassica oleracea var. italica Plenck navlaridan (kultivarlaridan) yetishtirilgan va iste’molchiga yangi holda yetkazib beriladigan brokkoliga nisbatan qo‘llaniladi, sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan brokkoli bundan mustasno.

II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlashdan keyingi bosqichda brokkoliga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlar standart talablariga nisbatan quyidagi holatlarni namoyon qilishi mumkin:

• yangilik va taranglikning biroz yo‘qolishi;

• mahsulotning rivojlanishi va tez buziluvchanlik xususiyati tufayli sifatning biroz yomonlashuvi.

Mahsulotga egalik qiluvchi/sotuvchi bunday mahsulotlarni mazkur standartga muvofiq bo‘lmagan xar qanday boshqa tarzda namoyish etishi, sotuvga qo‘yishi, yetkazib berishi yoki muomalaga chiqarishi (marketing qilishi) mumkin emas. Mahsulotga egalik qiluvchi/sotuvchi ushbu muvofiqlikka rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha brokkolilar, har bir nav uchun ko‘zda tutilgan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan me’yorlarni hisobga olgan holda, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• butun (shikastlanmagan)bo‘lishi; mahsulot ko‘rinishini yaxshilash maqsadida ayrim yon kurtaklari olib tashlanishiga yo‘l qo‘yiladi.

• sifatli bo‘lishi; mahsulotning iste’mol uchun yaroqsiz bo‘lishiga olib keluvchi chirish yoki sifat buzilishi holatlari kuzatilgan mahsulotlar bundan mustasno;

• toza bo‘lishi; amalda ko‘rinadigan begona moddalardan xoli bo‘lishi

• ko‘rinishi yangi (yangi uzilgandek) bo‘lishi

• zararkunanda hasharotlardan deyarli xoli bo‘lishi

• zararkunanda hasharotlar tomonidan yetkazilgan shikastlarsiz bo‘lishi

• ortiqcha tashqi namlikdan xoli bo‘lishi; mahsulotni sovutish uchun maydalangan muz ishlatilgan holatlarda, qoldiq suv izlari ortiqcha namlik deb hisoblanmaydi

• har qanday yot hid va/yoki ta’msiz bo‘lishi.

STANDARTLAR INSTITUTI #IGNVFE3FTW - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Gul poyasining kesimi toza va imkon qadar poyaga tekis bo‘lishi kerak.

Brokkolining rivojlanishi va holati quyidagilarni ta’minlaydigan darajada bo‘lishi kerak:

• tashish (transportda), yuklash va tushirish jarayonlariga bardosh bera olsin;

• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi

B. Tasnifi

Brokkoli quyida belgilangan ikkita navga bo‘linadi:

(i) Birinchi nav

Ushbu navga mansub brokkoli yaxshi sifatga ega bo‘lishi kerak. U navga va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Brokkoli quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• qattiq va zich;

• kurtaklari qattiq (bir-biriga jips) joylashgan bo‘lishi;

• dog‘lar yoki sovuq urish izlari kabi nuqsonlardan xoli bo‘lishi

Gulkurtaklari to‘liq yopiq bo‘lishi kerak.

Gul poyasi yetarlicha mayin va yog‘ochlashish belgilaridan xoli bo‘lishi kerak.

Biroq, agar mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanuvchanligiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmasa, quyidagi mayda nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shaklidagi biroz (yengil) nuqson;

• ranglanishdagi biroz (yengil) nuqson.

Brokkoli boshchasidan yuqoriga chiqib turgan barglarga, agar ular yashil, sog‘lom, yangi va mayin bo‘lsa, yo‘l qo‘yilishi mumkin.

(ii) Ikkinchi nav

Ushbu navga birinchi navga kiritib bo‘lmaydigan, biroq yuqorida sanab o‘tilgan minimal talablarga javob beradigan brokkoli kiradi.

Brokkoli quyidagicha bo‘lishi mumkin:

• biroz bo‘shashgan va kamroq zich;

• Kurtaklari kamroq jips (yirikroq donador) bo‘lishi.

Gulkurtaklari deyarli yopiq bo‘lishi kerak.

Gul poyasi yetarlicha mayin bo‘lishi kerak va unda yog‘ochlashish izlari bo‘lishi mumkin.

Brokkoli o‘zining sifati, saqlanuvchanligi va qadoqdagi taqdimotiga oid asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

• shaklidagi nuqsonlar;

• rangidagi nuqsonlar;

• biroz ezilgan va shikastlangan joylar.

Brokkoli boshqasidan yuqoriga chiqib turgan barglarga, agar ular yashil, sog‘lom, yangi va mayin bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #IGNVFE3FTW - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

III. O‘lchamlarga oid qoidalar

Mahsulot o‘lchami yoki gulpoyaning kesilgan uchidagi diametri bo‘yicha, yoxud boshchaning maksimal diametri bo‘yicha belgilanadi.

Minimal o‘lcham quyidagicha bo‘lishi kerak:

• Gul poyasining diametri bo‘yicha saralangan brokkoli uchun – 8 mm;

• Boshcha diametri bo‘yicha saralangan hamda oldindan qadoqlangan yoki bog‘langan holda taqdim etiladigan brokkoli uchun – 2 sm;

• Boshcha diametri bo‘yicha saralangan brokkoli uchun – 6 sm.

Har qanday holatda har bir qadoqdagi boshcha diametrining gul poyasi diametriga bo‘lgan nisbati 2:1 dan kam bo‘lmasligi kerak.

Eng yuqori o‘lcham balandligi bo‘yicha 20 sm bo‘lishi kerak, uzun poyali turdagi brokkoli bundan mustasno.

O‘lcham bir xilligini ta’minlash uchun bitta qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagilardan oshmasligi kerak:

• Gul poyasining diametri bo‘yicha saralangan brokkoli uchun – 20 mm;

• Boshcha diametri bo‘yicha saralangan brokkoli uchun, agar eng kichik boshcha diametri 10 sm dan kam bo‘lsa – 4 sm;

• Boshcha diametri bo‘yicha saralangan brokkoli uchun, agar eng kichik boshcha diametri 10 sm yoki undan ortiq bo‘lsa – 8 sm.

Barcha oldindan qadoqlangan yoki bog‘langan mahsulotlar uchun o‘lcham bir xilligi talab etilmaydi.

O‘lcham talablari miniatyura mahsulotlariga nisbatan qo‘llanilmaydi[1].

IV. Ruxsat etilgan og‘ishlarga oid qoidalar

Ko‘rsatilgan nav talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun xar bir turkumda sotishning barcha bosqichlarida sifat va o‘lcham bo‘yicha og‘ishlarga yo‘l qo‘yiladi.

A. Qo‘yim sifati

(i) Birinchi nav

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq ikkinchi nav talablariga mos keladigan brokkoli mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu og‘ish doirasida umumiy miqdorning 1 % dan ko‘p bo‘lmagan qismi ikkinchi nav sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki degradatsiyaga uchragan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

[1] Miniatyura brokkoli deganda, maxsus kichik o‘lchamdagi brokkoli olish maqsadida yetishtirilgan brokkoli tushuniladi. To‘liq rivojlanmagan brokkoli bular qatoriga kirmaydi. Standartning qolgan barcha talablariga javob berishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #IGNVFE3FTW - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(ii) Ikkinchi nav

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10% gacha ushbu nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan brokkolilar mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu og‘ish doirasida umumiy miqdorning 2% dan ko‘p bo‘lmagan qismi degradatsiyaga uchragan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha sinflar uchun (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa): o‘lcham bo‘yicha belgilangan talablarga javob bermaydigan brokkolining donalar soni yoki vazni bo‘yicha jami 10 % og‘ishiga yo‘l qo‘yiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibi bir xilda va faqat bitta kelib chiqishga ega, bir xil navga mansub, bir xil sifat toifasi va o‘lchamdagi brokkolilardan iborat bo‘lishi kerak.

Birinchi navdagi brokkolining rangi bir xil bo‘lishi kerak.

Biroq, sifati jihatidan bir xil bo‘lishi hamda tegishli har bir rang bo‘yicha kelib chiqishi bir xil bo‘lishi sharti bilan, rangi aniq farq qiladigan brokkoli aralashmasi bitta qadoqqa birgalikda joylashtirilishi mumkin. Biroq, bunday aralashmalar holatida o‘lcham bir xilligi talab etilmaydi.

Miniatyura brokkolilarining o‘lchami yetarlicha bir xil bo‘lishi kerak. Ular boshqa turdagi va boshqa kelib chiqishga ega bo‘lgan miniatyura mahsulotlari bilan aralashtirilishi mumkin.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun qadoq tarkibiga to‘liq mos kelishi kerak.

B. Qadoqlash

Mahsulot uning tegishli darajada saqlanishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza bo‘lishi va mahsulotga tashqi yoki ichki zarar yetkazmaydigan sifatda bo‘lishi kerak.

Xususan, matn yozish yoki yorliq yopishtirish uchun toksik bo‘lmagan siyoh yoki yelim qo‘llanilishi sharti bilan qog‘oz yoki savdo tavsiflari tushirilgan yorliqlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Qadoqlarda hech qanday begona moddalarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda[2] bir tomonda guruhlangan, aniq va o‘chmaydigan tarzda yozilgan hamda tashqaridan ko‘rinib turadigan quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

[2] Ushbu tamg‘a qoidalari qadoqlar ichida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI#IGNVFE3FTW - 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

A. Identifikatsiya belgilari

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchining:

nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat UNECE ma’lumotlar bazasida ro‘yxatga olingan bo‘lsa, milliy organ[3] tomonidan rasman tan olingan kod belgisi.

B. Mahsulot tavsifi

Agar mahsulot tarkibi tashqaridan ko‘rinib turmasa, “Brokkoli” yoki “Kalabreze” navning nomi;

tegishli hollarda “Uzun poyali turdagi brokkoli” yoki shunga tenglashtirilgan nom;

rangi aniq farq qiladigan brokkolilar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, “Brokkoli aralashmasi” yoki shunga tenglashtirilgan nom. Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinib turmasa, qadoqdagi har bir rang va ularning miqdori ko‘rsatilishi kerak.

“Miniatyura brokkoli” yoki miniatyura mahsulotlari uchun boshqa tegishli atama. Agar bitta qadoqda bir nechta turdagi miniatyura mahsulotlari aralashtirilgan bo‘lsa, barcha mahsulotlar va ularning tegishli kelib chiqish joylari ko‘rsatilishi kerak.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

• Kelib chiqish mamlakati[4] va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy nomi.

• Kelib chiqishi turlicha bo‘lgan va rangi aniq farq qiladigan brokkoli aralashmasi holatida, har bir kelib chiqish mamlakatining ko‘rsatkichi tegishli rang nomining yonida ko‘rsatilishi kerak.

D. Tijorat tavsifnomalari

• Nav;
• O‘lcham, mevaning minimal va eng yuqori diametrlari bilan ifodalangan, ixtiyoriy;
• Tegishli hollarda “Maydalangan muz bilan qadoqlangan”.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1994-yilda qabul qilingan.

Oxirgi marta 2019-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

2017 yilgi standartlarning Namunaviy shakliga muvofiqlashtirilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) Meva va sabzavotlar uchun xalqaro standartlarni qo‘llash chizmasi ushbu standartni qo‘llash bo‘yicha tushuntirishli tasvirlangan broshyurani nashr etdi. Nashrni OECD kitob do‘konidan quyidagi manzil orqali olish mumkin: www.oecdbookshop.org.

[3] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgi qo‘llanilgan taqdirda, “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki shunga tenglashtirilgan qisqartmalar)” yozuvi ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak, shuningdek, agar tan olgan mamlakat kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kodli belgidan oldin ushbu mamlakatning ISO 3166 (alfa) standarti bo‘yicha mamlakat/hudud kodi ko‘rsatilishi kerak.

[4] To‘liq yoki odatda ishlatiladigan nom ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #IGNVFE3FTW - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI